

## BOLALARDA TUG`MA YURAK NUQSONLARI

*Erishboyeva Nasiba Bahodirjon qizi*  
*Pop Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi*  
*texnikumi mutaxassislik fani o`qituvchisi*



**Annotatsiya:** Tug`ma yurak nuqsonlari, kichik kesmalar, bepul operatsiyalar, yurak va qon tomirlarining anatomik anomaliyalari, robotik jarrohlik usuli

**Kalit so`zlar:** tug`ma yurak nuqsoni, arterial va intraventrikulyar septal nuqsonlar, ochiq arterial kanal, klapan patologiyasi, Daun sindromi,

Har yili millionlab bolalar yurak va qon tomirlarining anatomik anomaliyalari bilan tug`ilmoqda. Tug`ma yurak nuqsonlarining 200 dan ortiq turi bor, ba'zilari yengil shaklda bo`lib, boshqalari esa bolaning hayotiga xavf soladi. Eng keng tarqalgan anomaliyalar orasida arterial va interventrikulyar septal nuqsonlar, ochiq arterial kanal, klapan patologiyasi mavjud. Kasallikning jiddiy shakllarida, to`g`ri davolanish amalga oshirilmasa, chaqaloqlarning birinchi oylaridayoq 70-80 foizi o`lishadi. Agar diagnostika o`z vaqtida o`tkazilsa, zamonaviy diagnostikalar yordamida davolashning eng yangi usullari orqali bolani to`liq davolash mumkin. Bolaning yuragidagi patologik o`zgarishlarning asosiy sababi genetik omil hisoblanadi. Agar ota-onadan biri qattiq yurak kasalligiga chalingan bo`lsa, unda yangi tug`ilgan chaqaloq ham ayni kasallikka duchor bo`lishi mumkin.. Tug`ma yurak kasalligi bo`lgan bolalar diabet kasalliklari, homiladorlik davrida og`ir virusli infeksiyalar o`tkazgan ayollar, chekuvchilar, spirtli ichimliklar va ba'zi dorilar foydalanuvchilari va rentgen nuriga duch kelgan ba'zi ayollardan tug`iladi.

**Xavf omillari quyidagilar:** 35 yoshdan oshib tug`adigan ayollar, EKO, Daun sindromi shaklida xromosoma anomaliyalari mavjud bolalar kiradi. Yurak kasalligi har qanday homiladorlik davrida rivojlanishi mumkin, lekin 6-8 hafta eng xavfli hisoblanadi. U davrda yurak va klapanlarning bo`linmalari shakllanadi va har qanday salbiy omil ularga ta'sir qilishi mumkin.

**Bolada tug`ma yurak nuqsoni borligiga oid aniq belgilar mavjud.**

- lablar, quloqlarda va tirnoq ostidagi terining ko`karishi;
- tez nafas olish, nafas olish paytida qovurg`alarning siqilishi;
- charchoq, ko`krak qafasidagi suyuqlik;
- ishtahaning pastligi, tana vazni ortishining sustligi;
- charchoq;
- nafas olish yo`llari infeksiyalariga sezuvchanlik.

Bu simptomlar ko‘pincha keyinroq paydo bo‘ladi, eng ko‘p hollarda esa o‘smirlik davrida paydo bo‘ladi. Tug‘ma yurak kasalligi bo‘lgan bolalarda nafas qisilishi, ko‘krak qafasi og‘rishi va tez-tez yurak urishi, tez charchash kuzatiladi.

**Kasallikni davolash**. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, bugungi kunda juda murakkab yurak nuqsonlarini davolash mumkin. Ba'zi hollarda, yurakka kirish uchun faqatgina kichik kesmalar qilinadi, bu kasalxonada qolish muddatini qisqartiradi, tezda tiklanishni osonlashtiradi. Agar bolaning ko‘kragi yaxshi rivojlangan bo‘lsa, unda jarohatlarning oldini olish uchun robotik jarrohlik usuli qo‘llaniladi. O‘zbekistonda joriy yilda 2000 dan ortiq tug‘ma yurak nuqsonli bolalar bepul operatsiya qilinmoqda. Ularning barchasi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 18 yoshgacha bo‘lgan farzandlari. Ularning davolanishi uchun 64mlrd so‘m mablag‘ ajratildi. Davlatimiz rahbarining o‘g‘ir kasallikka chalingan minglab bemorlarda murakkab operatsiyalarni o‘tkazish bo‘yicha bergan topshirig‘iga asosan aprel oyidan boshlab viloyatdagi o‘g‘ir bemorlarni bepul operatsiya qilina boshlandi. Davlat tomonidan ajratilgan 2mlrd 555mln so‘m mablag‘ evaziga Surxondaryo viloyatidan 38 nafar, Jizzax viloyatidan 17 nafar, jami 55 nafar bolalar jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi. 77 nafar bola esa davolanmoqda .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.M.Aliyev “Bolalar xirurgiyasi” Toshkent 2018
2. Ergash Qobilov, Farxod Raupov “Bolalar xirurgik kasalliklari “Toshkent 2017

#### **Internet saytlar**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.google.uz](http://www.google.uz)
3. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)